



SUG'URTA ZAXIRALARI HISOBINING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Kodirkulov Oybek

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0009-0001-6645-5919

oybekrd@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada buxgalteriya hisobi obykti va moliyaviy hisobot elementi sifatida sug'urta zaxiralari tavsifi va tasniflanishi tadqiq qilib o'rganilgan. Jumladan, sug'urta zaxiralari tushunchasiga mualliflik yondashuvi ishlab chiqilgan hamda ulardan foydalanish mezonlari bo'yicha tasniflab berilgan holda xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: sug'urta zaxirasi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, sug'urta shartnomasi, sug'urta xodisasi, sug'urta to'lovlari, sug'urta riski.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИХ ОСНОВ УЧЕТА СТРАХОВЫХ РЕЗЕРВОВ

Кодиркулов Ойбек

Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В этой статье изучается описание и классификация страховых резервов как объекта бухгалтерского учета и элемента финансовой отчетности. В частности, разрабатывается авторский подход к понятию страховых резервов и делаются выводы, классифицирующие их по критериям использования.

Ключевые слова: страховой резерв, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, договор страхования, страховой случай, страховые выплаты, страховой риск.

IMPROVING THE THEORETICAL BASIS OF ACCOUNTING FOR INSURANCE RESERVES

Kodirkulov Oybek

Tashkent State University of Economics

Abstract. This article studies the description and classification of insurance reserves as an object of accounting and an element of financial reporting. In particular, the author's approach to the concept of insurance reserves is developed and conclusions are drawn, classifying them according to the criteria for their use.

Keywords: insurance reserve, accounting, financial reporting, insurance contract, insured event, insurance payments, insurance risk.

Kirish.

Ma'lumki, sug'urta tashkilotlarini sug'urta faoliyatining iqtisodiy va moliyaviy asoslari boshqa biznes faoliyat turlaridan birinchi navbatda sug'urta zaxiralarining shakllanishi bilan farqlanadi. Shuningdek, xalqaro va milliy amaliyotga e'tibor qaratadigan bo'lsak, sug'urta tashkilotlarining moliyaviy barqarorligi baholashda qo'llaniladigan asosiy ko'rsatkichlardan biri bu sug'urta zaxiralari miqdori hisoblanadi. Shu sababli, sug'urta tashkiloti sug'urta faoliyatini amalga oshirishda sug'urta shartnomalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda nafaqat sug'urta mukofotlari ko'rinishidagi pul mablag'larini jalb qilishi, balki sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovlarini amalga oshirish uchun ham sug'urta zaxiralari ega bo'lishi zarur. Chunki, sug'urta zaxiralarining iqtisodiy mohiyati sug'urta hodisasi yuz berganda sug'urta to'lovini moliyalashtirish uchun ma'lum miqdordagi mablag'larni ajratishni talab etadi.

Adabiyotlar sharhi.

Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va moliyaviy hisobotni tayyorlash tartibini takomillashtirish borasida xorijlik va mamlakatimiz iqtisodchi olimlari tomonidan izlanishlar olib borilgan. Sug'urta zaxiralarini buxgalteriya hisobi obyekti va moliyaviy hisobot elementi sifatida tasniflash borasida ham qarashlari va yondashuvlari turlicha ekanligini kuzatish mumkin. Jumladan, xorijlik iqtisodchi olim Bajanov (2009) tomonidan hayotni sug'urta qilishdan tashqari sug'urta bo'yicha sug'urta zaxiralari turlarini "Ishlab topilmagan mukofot zaxirasi" va "Zararlarni qoplash zaxirasi"ga ajratga holda tavsiflab bergan. Shuningdek, muallif sug'urta zaxiralari hisoblash metodikalarini tasniflagan holda ulardan foydalanish tartibini tavsiflab berish bilan chegaralangan xolos. Ya'ni, muallif tomonidan sug'urta zaxiralarini hisoblashda qo'llaniladigan metodlardan foydalanish tartibi aniq bir monografik tadqiqot obyekti ma'lumotlari asosida ko'rsatib o'tilmaydi.

Serikovaning (2010) yozishicha, "Umumiy sug'urta sohasi uchun sug'urta zaxiralari quyidagi zaxira turlarini o'z ichiga oladi: ishlanmagan mukofotlar zaxirasi; yetkazilgan, ammo xabar qilinmagan zararlar uchun zaxira; e'lon qilingan, ammo qoplanmagan zararlar uchun zaxira". Muallif tadqiqot ishida mazkur sug'urta zaxiralari turlarini har birini tavsiflagan holda ularni hisoblash tartibini matematik formula ko'rinishi ifodalab beradi. Shuningdek, muallifning sug'urta zaxiralarining yetarliligini aniqlashda "sug'urta zaxirasi ta'minoti ko'rsatkichi", "sug'urta zaxiralarining majburiyatlarga nisbati koeffitsiyenti" va "xususiy kapitalning sug'urta zaxiralari nisbati koeffitsiyenti" kabi ko'rsatkichlardan foydalanish lozimligini ta'kidlaydi. Buni, sug'urta kompaniyalarida kelgusi sug'urta to'lovlari bo'yicha kafolatlarning bajarilishini ta'minlash uchun muhim ahamiyat kasb etishi bilan izohlaydi.

Jana Gläserová (2014) o'z tadqiqot ishlarida tijorat sug'urta kompaniyalari buxgalteriya hisobida ishlab topilmagan mukofot zaxirasining xususiyatlari o'rgangan bo'lib, u sug'urta zaxiralarini "Hayot sug'urtasi" va "Hayotdan tashqari sug'urta" sohalariga ajratgan holda tasniflagan. Xususan, hayotdan tashqari sug'urta sohasi bo'yicha sug'urta zaxiralarini quyidagicha tasniflaydi: ishlab topilmagan mukofot zaxirasi; sug'urta to'lovlari uchun zaxiralar; bonuslar va chegirmalar uchun zaxira; hayotdan tashqari sug'urta uchun mukofot zaxirasi; boshqa texnik zaxiralar; hisob-kitob zaxirasi; Chexiya sug'urta idorasining majburiyatlari bo'yicha kafolatdan majburiyatlarni bajarish zaxirasi. Biroq, muallif yuqorida tasniflab ko'rsatgan sug'urta zaxiralaridan faqat ishlab topilmagan mukofot zaxirasini hisoblash va buxgalteriya hisobida aks ettirish masalalarini yoritib berish bilan chegaralanganligini ko'rish mumkin.

Abdiraimova (2024) sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish borasida olib borgan izlanishlarida sug'urta zaxiralarini sug'urta tashkilotlarining buxgalteriya balansining passiv qismida aks ettirish kerakligi hamda unda sug'urta zaxiralari va qayta sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari ulushi kabi ko'rsatkichlar bo'yicha axborot berilishi kerakligini ko'rsatib o'tadi xolos. Bu esa, axborotdan foydalanuvchiga sug'urta zaxiralari shakllanish manbasi to'g'risida to'liq axborot bermaydi.

Najimova (2024) ta'kidlashicha, sug'urta zaxiralari odatda ikkita asosiy turga bo'linadi: matematik va risk zaxiralari. Shuningdek, muallif matematik zaxiralar sug'urta shartnomalari

va statistik tahlillarga asoslanishini, risk zaxiralari esa, kutilmagan hodisalar natijasida yuzaga keladigan moliyaviy yo'qotishlarni qoplash uchun tashkil etilishini tavsiflab o'tgan xolos. Fikrimizcha, muallif tomonidan tasniflab ko'rsatilgan sug'urta zaxiralarni hisoblash, buxgalteriya hisobida hisobga olish va moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibi yoritib berilishi tadqiqot ishining ilmiy-amaliy ahamiyatini yanada oshirgan bo'lar edi.

Shirinov (2024) sug'urta zaxiralari auditining metodologik masalalari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan bo'lib, uning fikricha, sug'urta korxonalarida zaxiralarni zaxira kapitali va sug'urta zaxiralarga ajratish mumkin. Shuningdek, uning ta'kidlashicha, "Sug'urta korxonalarida sug'urta zaxiralari quyidagilardan iborat: ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi; sodir bo'lgan lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi; xabar qilingan lekin bartaraf etilmagan zararlar; o'g'xlantirish chora-tadbirlari zaxirasi; aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi; falokatlar zaxirasi; hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiralari; ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi; xabar qilingan lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi; sodir bo'lgan lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi; hayot sug'urtasi bo'yicha zaxiralardagi qayta sug'urtalovchilarning ulushi". Bunda iqtisodchi olim O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizomda belgilangan tasniflash bilan chegaralanganligini ko'rishimiz mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Sug'urta zaxiralarning iqtisodiy mohiyati, ularning shakllantirishda o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish va tadqiq qilib o'rganishda mantiqiy fikrlash, dalillar to'plash, tasavvur etish, qiyoslash, shakllantirish va muammoni qo'yish kabi nazariy-tadqiqot hamda ilmiy adabiyotlar, kuzatish va davr oralig'ida tadqiq qilish kabi empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Bugungi kunda milliy sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlari tomonidan tashkil etilgan sug'urta zaxiralari va ularning jami aktivlarga nisbatan ulushi tahlil qilib o'rganilganda quyidagi ma'lumotlarga ega bo'lindi (1-jadval). 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinadiki, milliy sug'urta bozorida faoliyat yuritayotgan sug'urta tashkilotlarining jami aktivlari 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 2371524,8 ming so'mga yoki 26,3 foizga, 2022-yilga nisbatan esa, 5252306 ming so'mga yoki 85,5 foizga oshganligini ijobiy baholash mumkin. Chunki, sug'urta tashkilotlari aktivlarining ortishi uning moliyaviy barqarorligining oshishiga xizmat qiladi. O'z navbatida, sug'urta zaxiralari ko'rsatkichlariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu ko'rsatkich 2024-yilda 2023-yilga nisbatan 763816 ming so'mga yoki 18,6 foizga, 2022-yilga nisbatan 2162989,7 ming so'mga yoki 79,6 foizga ortganligini ko'rish mumkin. Bunday ko'rsatkichlar sug'urta tashkilotlarining to'lov qobiliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mamlakatimiz sug'urta tashkilotlarining jami aktivlari 2024-yilda 2022-2023-yillarga nisbatan o'zgarishi mos ravishda 85,5 foiz va 26,3 foizni tashkil etgan bo'lsa, jami sug'urta zaxiralari 2024-yilda 2022-2023-yillarga nisbatan mos ravishda 79,6 foiz va 18,6 foizni tashkil etganligi, umumiy sug'urta bozorining to'lov qobiliyati ortganligidan dalolat beradi.

Shuningdek, sug'urta tashkilotida sug'urta zaxiralarning jami aktivlardagi ulushining ortib borishi ham uning to'lov qobiliyatini pasayishiga va moliyaviy barqarorligining yomonlashuviga olib keladi. Shu bois, monografik tadqiqot obyekti bo'lgan aksiyadorlik jamiyati shaklidagi "Xalq sug'urta" tashkilotining jami aktivlariga nisbatan sug'urta zaxiralari ulushiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bu ko'rsatkich 2024-yilda 59,89 foizni tashkil etgan bo'lib, 2023-yilga nisbatan 1,27 (59,89 – 61,16) foizga kamaygan bo'lsada, sug'urta zaxiralari hajmi 40 247,25 ming so'mga yoki 38,5 foizga oshganligini kuzatishimiz mumkin. Albatta, bunday o'zgarish sug'urta tashkilotining asosiy faoliyat daromadlari va to'lov qobiliyatining pasayishiga olib keladi. Lekin, ushbu holat jamiyat aksiyadorlari tomonidan mablag'larni olib chiqib ketishini kamaytirib, mavjud aktivlarni o'zida saqlab qolishga sabab bo'ladi.



**Sug'urta tashkilotlarida sof sug'urta zaxiralari va ularning jami aktivlardagi ulushi to'g'risida
MA'LUMOT**

№	Sug'urta tashkilotlari	2022-yil			2023-yil			2024 yil		
		Jami aktiv, ming so'm	Sof sug'urta zaxira, ming so'm	Jami aktivdagi ulushi, %	Jami aktiv, ming so'm	Sof sug'urta zaxira, ming so'm	Jami aktivdagi ulushi, %	Jami aktiv, ming so'm	Sof sug'urta zaxira, ming so'm	Jami aktivdagi ulushi, %
1	"O'ZBEKINVEST" EISK AJ	1688265,8	517418,6	30,65	2025059,4	928104,15	45,83	2299745,9	1010566,2	43,94
2	"APEX INSURANCE" AJ	1001627,1	458845,82	45,81	2289865,7	864792,88	37,77	2572790,0	770867,46	29,96
3	"TEMIRYO'L SUG'URTA" AJ	154264,4	59840,43	38,79	225864,5	80753,02	35,75	236570,39	93798,9	39,65
4	"GROSS SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	227217,4	144043,3	63,39	355270,7	214497,65	60,38	484584,92	286084,9	59,04
5	"O'ZAGROSUG'URTA" AJ	351866,6	211070,15	59,99	467920,9	173258,6	37,03	540773,6	179270,16	33,15
6	"KAFOLAT SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	308756,1	200838,07	65,05	548694,8	225810,88	41,15	807664,62	229427,19	28,41
7	"KAPITAL SUG'URTA" AJ	218028,6	106690,75	48,93	298405,2	164270,16	55,05	352 479,84	186840,38	53,01
8	"SQB INSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	164998,3	97011,76	58,8	240193,6	151630,98	63,13	314443,25	212902,93	67,71
9	"IMPEX-INSURANCE" AJ	73385,8	21302,55	29,03	93393,8	29031,13	31,08	127680,03	46684,23	36,56
10	"MY-INSURANCE" AJ	214092,4	141960,04	66,31	337255,7	238697,63	70,78	447544,53	313399,4	70,03
11	"EUROASIA INSURANCE" AJ QK	202414,2	60356,83	29,82	202781,5	74658,99	36,82	208121,81	106060,6	50,96
12	"KAFIL SUG'URTA" AJ	94932,9	36355,93	38,3	145447,1	68846,93	47,33	230303,8	85229,46	37,01
13	"ALSKOM" AJ	138418,7	66603,88	48,12	194614,2	109706,26	56,37	253251,43	141019,75	55,68
14	"INGO-UZBEKISTON" AJ	102957,9	21929,06	21,3	128722,0	28740,74	22,33	128572,97	49251,2	38,31
15	"ALFA INVEST SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	186047,0	94663,77	50,88	212011,0	125001,67	58,96	514507,7	254533,3	49,47
16	"INSON" AJ	97037,4	46963,65	48,4	136098,9	81192,55	59,66	184030,95	107500,59	58,41
17	"ASIAINSURANCE SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	110384,3	43552,43	39,46	112528,0	50932,25	45,26	171083,3	48460,47	28,33
18	"SEMURG SUG'URTA" AJ QK	59837,0	19044,89	31,83	8432,5	31975,91	37,92	81266,42	40577,67	49,93
19	"XALQ SUG'URTA" AJ	158266,0	93087,37	58,82	171112,0	104597,99	61,16	241 838,01	144845,24	59,89
20	"MOAIC INSURANCE COMPANY" AJ QK	47501,5	8025,26	16,89	131581,5	22438,06	17,05	272 584,01	112508,9	41,27
21	"INFINITY INSURANCE" AJ	62635,0	24592,6	39,26	84467,0	34766,52	41,16	142012,46	66772,28	47,02
22	"IMKON SUG'URTA" AJ	164782,2	107995,99	65,54	207257,7	126380,43	60,98	225346,5	124849,45	55,40
23	"NEO INSURANCE CORP" AJ	-	-	-	49082,5	11075,58	22,47	95638,43	45311,22	47,38
24	"ISHONCH SUG'URTA KOMPANIYASI" AJ	107651,0	31433,71	29,2	102049,2	46842,29	45,77	128572,9	65837,94	51,21
25	"ARIA SUG'URTA TASHKILOTI" AJ	21942,8	14161,9	64,54	22535,0	15579,01	69,13	54061,98	29606,85	54,76
26	"TRUST-INSURANCE" AJ	55140,0	18338,0	33,26	73493,0	29875,34	40,65	107526,27	43600,79	40,55
27	"GLOBAL INSURANCE GROUP" AJ	49545,0	26612,03	53,71	55654,2	33414,84	60,04	58443,6	33726,6	57,71
28	"HAMKOR SUG'URTA" AJ	81592,0	43327,03	53,1	104577,0	48367,04	46,25	114453,75	49521,48	43,27
	Jami	6143587,4	2716065,8	44,21	9024368,6	4115239,5	45,60	11395893,4	4879055,5	42,81

Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Shu nuqtai-nazardan, aksiyadorlik jamiyati shaklidagi “Xalq sug’urta” tashkiloti har hisobot davrida aktuariy tashkilotlariga sug’urta zaxiralarini qayta hisob-kitob qildirishlari lozim. Chunki, sug’urta zaxiralarining hisobot davri boshiga nisbatan ortib borishi sug’urta tashkilotining sug’urta faoliyati bo’yicha daromadlarining pasayishiga, uni hajmining kamayishi esa, daromadlarining ortishiga olib keladi. Shu bois, sug’urta tashkiloti har hisobot davrida amalda bo’lgan sug’urta shartnomalari bo’yicha sug’urta portfelini aktuariy hisob-kitoblar asosida sug’urta zaxiralarini aniqlashi lozim deb hisoblaymiz. Agarda aktuariy hisob-kitoblardan sug’urta zaxiralari hisobot davri boshiga nisbatan ortib borishi kuzatilsa, sug’urta tashkiloti sug’urta turlari bo’yicha stavkalarni qayta ko’rib chiqishi va bozor talablaridan kelib chiqqan holda oshirishi lozim bo’ladi. O’zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2009-yil 19-martdagi 37-son buyrug’i bilan tasdiqlangan «Sug’urtalovchilarning moliyaviy hisobot shakllari va ularni to’ldirish bo’yicha qoidalar”ga muvofiq sug’urta zaxiralari moliyaviy hisobot elementi sifatida quyidagicha buxgalteriya balansida aks ettiriladi (1-rasm).

Sug’urta zaxiralari		
Buxgalteriya hisobi obykti	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi	Moliyaviy hisobot elementi
	Sodir bo’lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi	
	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi	
	Ogohlantirish chora-tadbirlari zaxirasi	
	Aktivlarning nomuvofiqligi zaxirasi	
	Falokatlar zaxirasi	
	Zararlilikning tebranishi zaxirasi	
	Hayot sug’urtasi bo’yicha zaxiralar	
	Ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi qayta sug’urtalovchilarning ulushi	
	Sodir bo’lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug’urtalovchilarning ulushi	
	Xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug’urtalovchilarning ulushi	
	Hayot sug’urtasi bo’yicha zaxiralardagi qayta sug’urtalovchilarning ulushi	

1-rasm. Sug’urta zaxiralarini buxgalteriya hisobi obykti va moliyaviy hisobot elementi sifatida tasniflanishi

Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan shakllantirilgan.

Faqat buxgalteriya hisobi obykti sifatida ayrim sug’urta zaxiralari quyi guruhlariga tasniflangan holda hisobga olinadi. Masalan, zararlilikning tebranishi zaxirasi, transport vositalari egalarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish bo’yicha barqarorlashtirish zaxirasi, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish bo’yicha barqarorlashtirish zaxirasi hamda tashuvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug’urta qilish bo’yicha barqarorlashtirish zaxirasi alohida buxgalteriya hisobi obykti sifatida hisobi yuritiladi, biroq ular umumlashgan holda moliyaviy hisobotda zararlilikning tebranishi zaxirasi sifatida aks ettiriladi. Umuman olganda, milliy hisob tizimida sug’urta zaxiralarining buxgalteriya hisobi obykti va moliyaviy hisobot elementi sifatida tasniflanishi umumiylikni kuzatish mumkin. Umuman olganda, iqtisodchi olimlarning sug’urta zaxiralarini tasniflash borasidagi yondashuvlari nazariy va uslubiy jihatdan ahamiyatga molik hisoblanadi. Ammo, tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, xalqaro amaliyotda buxgalteriya hisobi obykti sifatida sug’urta zaxiralarini tan olish sug’urta turlaridan kelib chiqqan holda har bir sug’urta shartnomasining xususiyatlari bo’yicha tasniflanishini ko’rishimiz mumkin. Chunki, har bir sug’urta tashkiloti o’zining moliya-xo’jalik faoliyati hisobini tashkil etish, yuritish va faoliyat natijalarini moliyaviy hisobotda aks ettirish tartibini tavsiflovchi hisob siyosati va biznes siri mavjud. Shu bois, ular sug’urta shartnomalari bo’yicha sug’urta risklarini o’zlari mustaqil belgilaydi. Amaldagi 17-son “Sug’urta shartnomalari” MHXSda belgilangan talablarga ko’ra,

sug'urta zaxiralari tuziladigan sug'urta shartnomalarining shartlaridan kelib chiqib, bir nechta sigmentlarga ajratgan holda hisoblanishi mumkin. Shunday qilib, milliy va xalqaro tajribani o'rgangan holda buxgalteriya hisobi obyekti sifatida sug'urta zaxiralarini sug'urta shartnomalarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tasniflash tartibi sug'urta tashkilotining hisob siyosatida tasniflangan holda tavsiflab berilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ya'ni, faqat O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2008-yil 20-noyabrdagi 107-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risidagi nizom" da belgilangan sug'urta zaxiralari turlarini buxgalteriya hisobi obyekti sifatida tan olish bilan chegaralanish to'g'ri hisoblanmaydi. Shu bois, sug'urta tashkiloti hisob siyosatida sug'urta shartnomalarining xususiyatlaridan kelib chiqib, sug'urta zaxiralarini tasniflagan holda tavsiflab berishini taklif etamiz. Shuningdek, bugungi kunda sug'urta bozorida birgina moliyaviy tashkilotlar (banklar, mikrokredit tashkilotlari va h.k) tomonidan beriladigan kredit va qarzlarning ta'minoti sifatida sug'urta polislar bilan ta'minlash ortib bormoqda. Bu esa, sug'urta tashkilotlarining sug'urta portfelida moliyaviy risklarni sug'urta qilish ulushi oshib borayotganligini kuzatishimiz mumkin. Sug'urta portfelida sug'urta risklari mohiyatan moliyaviy xatarlar, baxtsiz xodisalar va uchinchi shaxs oldidagi javobgarlikdan iborat bo'lganligi sababli, sug'urta portfeli bo'yicha sug'urta zaxiralarni: "moliyaviy risklar bo'yicha sug'urta zaxiralari"; "baxtsiz xodisalar bo'yicha sug'urta zaxiralari"; "turli xil javobgarlik bo'yicha sug'urta zaxiralari" sifatida tasniflagan holda moliyaviy hisobotda aks ettirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Shu bilan birga, mazkur tasniflash bo'yicha sug'urta zaxiralari tarkibiy tuzilishiga doir axborotlarni moliyaviy hisobotning izohlarida ma'lumotlarni yoritib berish kerak deb hisoblaymiz. Bu albatta, quyidagilarga imkon beradi:

sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotlaridan foydalanuvchilarni sug'urta zaxiralari bo'yicha umumlashgan ma'lumotlarning tushunarli bo'lishi;

sug'urta tashkilotlari uchun moliyaviy risklarni yuridik va jismoniy shaxslarga ajratgan holda kredit qaytmaslik xatari bo'yicha ma'lumotlarni tezkorlik bilan tahlil qilish;

baxtsiz xodisalar bo'yicha sug'urta zaxiralarini shakllantirish asosan tabiiy iqlim va hodisalar hamda voqealikka bog'langanligi sababli, ularni bir guruhga birlashtirish;

yuqoridagilardan tashqari barcha sug'urta shartnomalari bo'yicha sug'urta hodisalarini turli xil javobgarlikga ajratish;

shuningdek, sug'urta zaxiralarini moliyaviy hisobot elementi sifatida bunday tasniflash sug'urta zaxiralarini moliyaviy hisobotda aks ettirish bilan bog'liq axborotlarining batafsilligi, obyektivligi va ishonchliligini yanada oshirish.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

Abduraimova, M.A. (2024) 'Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish asoslari', *Aktuar moliya va buxgalteriya hisobi ilmiy jurnali*, 4(02), pp.217–226.

Bajanov, G.S. (2009) 'Formirovaniye straxovoy rezervov straxovoy organizatsii kak istochnika investitsiy', *Finansovye issledovaniya*, (1), pp.61–67.

Glaserova, J. (2014) 'Specifics of the unearned premium reserve in the accounting of commercial insurance companies', *Acta Universitatis Agriculturae et Silviculturae Mendelianae Brunensis*, 62(6), pp.1271–1277.

IFRS Foundation (n.d.) Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (17-son MHXS): Sug'urta shartnomalari. Available at: <https://www.ifrs.org/issued-standards/list-of-standards/ifrs-17-insurance-contracts/>

Najimova, N. (2024) 'Sug'urta kompaniyalarida sug'urta zaxiralari hisobini takomillashtirish', *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, (10), October, p.27.

Serikova, G.S. (2010) *Finansovye aspekty deyatel'nosti straxovoy kompaniy*. Karaganda, pp.50–57.

Shirinov, U.A. (2024) 'Sug'urta zaxiralari auditining metodologik masalalari', *Ekonomika i sotsium*, 5(120)-1, pp.791–795.

Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлиги (2008) "Sug'urtalovchilarning sug'urta zaxiralari to'g'risida"gi Nizom. 107-son buyruq, 20 noyabr. Available at: <https://lex.uz/docs/1416862>